

Z. Hamroyeva, R. Qodirova

**SO‘NMAS
YOG‘DULAR**

(27-maktab tarixi)

**“TAFAKKUR” NASHRIYOTI
TOSHKENT-2010**

Zuhra Hamroyeva.
Soʻnmas Yogʻdular. /Z.Hamroyeva. T. «Tafakkur»
nash. 2010, – 152 b.

ISBN 978-9943-372-77-1

©“Tafakkur” nashriyoti, 2010-y.

Kitobxon.Com

SO‘Z BOSHI

Inson yodi tarix kitoblarda, avlodlar xotirasida mangu yashaydi. Inson eng avvalo o‘z avlodlari va tug‘ilib o‘sgan hudud tarixini yaxshi o‘rganishi zarurdir.

Prezidentimiz I. A. Karimov “Kimki o‘z tug‘ilib o‘sgan joyining tarixini yaxshi bilsa, unga Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi”, -deb bejiz aytmaganlar. Go‘zal G‘ijduvonimiz tarixini o‘qib,shunday yutuqlarimiz borligidan cheksiz quvondik. G‘ijduvon XTB tashabbusi bilan har bir maktab o‘z tarixini yozib qoldirishi nur ustiga a‘lo nur bo‘ldi.

Biz ham bu kitobchada 27-maktab tarixini yozar ekanmiz, avvalo G‘ijduvonimiz tarixiga nazar tashladik. Buyuk mutafakkir Xoja Abdulholiq G‘ijduvoniy hayoti haqida fikr yuritdik. G‘ijduvon xalq ta‘limining rivojlanishi, yozuv tarixi, ta‘lim jarayonidagi o‘zgarishlarga to‘xtaldik. 27-maktab poydevorini qurgan ustozlar maktabni rivojlantirgan rahbarlar, umrini ilm-ma‘rifatga bag‘ishlagan fidoiy insonlar, maktabimizning faxrli o‘quvchilari, maktabni obod qilishga ko‘maklashgan ota-onalar haqida so‘zladik.

Ushbu kitobni yozishda va materiallar to‘plashda o‘zining qimmatli maslahatlarini bergan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi E.S. Olimovga, maktab tarixini tiklashda yaqindan yordam bergan ustozlarimiz Hakim Jumayev, Fayzullo Mustafoyev, Madsad Ikromova, Zayniddin Bahodirov va Normurod Fozilovlarga o‘zimizning samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Biz kitobni “So‘nmas yog‘dular” deb nomladik. So‘nmaydigan narsa bormi?, - dersiz. Ha, ilm-ma‘rifat yog‘dusi hech qachon so‘nmaydi. Asrlar davomida shu‘lalanib, yog‘du sochib keladi. Bundan keyin ham mangu nur soshib turadi.

Zuhra Hamroyeva

“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”.

I. A Karimov,
“Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asaridan

I – BO‘LIM

TA‘LIMNING TARIX SAHIFALARI

“Inson o‘zligini, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi”.

I.A. Karimov

G‘ijduvon – hamisha g‘olib va muzaffar o‘lka (G‘ijduvon tarixi haqida fikrlar)

G‘ijduvonim, go‘zal shahrim sen bir jahonsan,
Osmoningda quyosh porlar nurlarga konsan.
Buxoroning osmonida mohi tobonsan.

Z.Hamroyeva

G‘ijduvon – qadim rivoyatu, afsonalar, piru ustozlar yurti!
Jahon ichra jahonim, tuprog‘i zar makonim, ona yurtim,
g‘ururim, iftixorim, jon G‘ijduvonim! G‘ijduvonim – Buxoro
osmonini charag‘on qilgan yorug‘ yulduzim!

G‘ijduvonim – ta‘rifi tillarda dostonim, O‘zbekiston
ko‘ksidagi porloq nishonim!

G'ijduvonim – saxovatli, mehmondo'st, bag'ri keng elim.
Har sohada peshqadam hamisha g'olib va muzaffar o'lkam!

G'ijduvonim – boyliklari behisob zargaru kosibu, usta dehqonim. Fozilu donishlar yurti pirlarga konim. Xoki poyi Makkaga teng bir oshyonim! Dovrug'i olamga ketgan Xojai Jahonim!

G'ijduvonim – fidoiylar yurti, zahmatkashu mehnatkashlar diyori, boshi baland ko'ksi tog'im! Barno qizu alp yigitlari bor pahlavonim. Farzandlari barkamol, bilimdon, mehnatsevar ham pok iymonim!

G'ijduvonim – savdogari saxiy yurtim, topganiga qanoat qilgan, berganiga shukur qilgan, boriga baraka deb yashagan sabr – qanoatli yurtim!

G'ijduvonim – ona zaminim, qo'llari qadoq bobodehqonim, tuprog'i zar, hosili mo'l, gul-gulistonim. Xushmanzara bog'lari ko'p, orombaxsh havoli oromijonim!

G'ijduvonim – g'ururim, orim, e'tiqodi baland, nomusim orim!

G'ijduvon 4 ming yillik tarixga ega bo'lgan, madaniyati boy qadim o'lkadir. G'ijduvon Alloh nazar qilgan, payg'ambarlar tavof etgan, bag'rida pirlar, avliyolar, ilmu donishlar uxlab yotgan sharif diyor.

*Elining himmati, saxovati keng,
Bunda to'qson ikki urug' – bari teng.
Bunda ilmu mo'jizasi yashaydi mangu
Ulug' Abdulxoliq G'ijduvoniyni.*

*Bu yerda tug'ilgan Sadridin Ayniy,
Shodixon yangratgan shahsmaqom, nayni.
Sharifjon Mahdumu, Qozi Ikrom ham
Ona tuproq degan shu qutlug' joyni.*

*Tilda doston bo'ldi "Zaynab Omoning"
Valijon Nabidir jang qahramoning
Elga mashhur bo'ldi Haydar, Obida
Yunusdek paxtakor bobo – dehqoning.*

Prezidentimiz “o‘tmishni o‘rganmay turib, kelajakni yarata olmaymiz”, – degan edilar. Biz ham o‘zimiz yashayotgan manzilimiz, qishlog‘imiz tarixini o‘rganmay turib, bilimdon va madaniyatli, fidoyi va jonkuyar inson bo‘lolmaymiz.

O‘z tarixini o‘rganish hammaning burchidir. I.A. Karimov “O‘tmishi ko‘milgan millatning istiqboli ham zulmat pardasi ostidadir” deb bejiz aytmaganlar. Inson o‘zligini nasl – nasabini bilsagina Vatanini taniydi, unga muhabbat bog‘laydi. Qayerda bo‘lmasin Vatanga intilib yashaydi.

Tor uyim, ko‘cha – kuyim, tandır o‘chog‘imdir Vatan
Har bahorda gullagan bodomzor bog‘imdir Vatan
Asragum har giyohini ko‘zga to‘tiyolar qilib
Chashmi mardumi kabi ko‘zi qarog‘imdir Vatan
Ajdodlarim ter to‘kkan bir giyoh undirgani
Garchi u cho‘l bo‘lsa ham bosgan tuprog‘imdir Vatan

“O‘tmishga qaytib ish ko‘rish xayrlidir” – degan edi taniqli adibimiz A. Qodiriy. O‘z tariximizga, unutilmas qadriyatlarimizga, urf – odatlarimizga murojaat etmoq, biz, farzandlar uchun faxr va iftixor namunasi sanaladi. Ota – bobolarimiz amalga oshirgan ishlarni, ularning fidokorona mehnatlarini xotirlash bizdan keyingi yoshlarga ibrat maktabi bo‘lishi muqarrar. Shu bois o‘z o‘lkasini o‘rganmay turib, Vatan tarixini bilolmaydi.

Vatanga muhabbat tuyg‘isi, avvalo, ostonadan boshlanadi. Biz uchun muqaddas ostona, ona zamin go‘zal G‘ijduvonimdir. G‘ijduvon juda qadim tarixga ega bo‘lgan qadimgi kitoblarda nomlari zikr qilingan afsonaviy go‘zal o‘lka.

G‘ijduvon Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Hofiz Tonish Buxoriyning “Abdullanoma”, Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Ahmad Donishning “Tarixi saltanati mang‘itiya”, S.Ayniyning “Esdaliklar”, “Qullar” va Mirza Azim Somiy, Sadr Ziyo, Mirzo Salimbek, Yahyo G‘ulomov singari tarixchilarimiz asarlarida tilga olingan.

Buyuk tarixchi M.Narshaxiy bobomiz aytganlaridek, bu go‘zal yurt haqida miloddan ilgari VI – V asrlarda Kichik Osiyoda yashab o‘tgan yunonlar yurtimizning aholisi, kasb-kori haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar.

Ular asosan dehqonchilik, chorvachilik, ziroatchilik, temirchilik, kulolchilik, hunarmandchilik va savdogarchilik bilan shug‘ullanganlar. Bu zaminda o‘zbek, tojik, eron, arab, turk, dashti qipchoqdan kelgan xalq vakillari yonma-yon yashagan. Shuning uchun G‘ijduvonda o‘zbekning 92 urug‘idan 38 urug‘ vakillari uchraydi.

Arab tarixchisi Abd-ul Rahmonning yozishicha G‘ijduvon buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan shahar bo‘lgan. Karvonlar bu yerda dam olishgan, tuyalarga yem g‘amlab Qizil O‘rda, Yassi, Xorazm, Arabsaroy, Xitoy, Hindiston va Orol bo‘yi mamlakatlariga qarab yo‘l olishgan. G‘ijduvon qo‘rg‘onida katta bozor bo‘lib, savdogarlar G‘ijduvonlik qo‘li gul hunarmandlar tayyorlagan zirak, halqa, uzuk, sapol idishlar, bo‘z, alocha, shoyi, kimxob, kundal kabi gazlamalarni xarid qilganlar. G‘ijduvon aholisi boy va badavlat bo‘lgan.

G‘ijduvon qishloqlariga dushmanlar tez-tez bosqinlar uyushtirib, talon-taroj qilingan. 830- yillarda G‘ijduvon atrofidagi qishloqlar baland devor bilan o‘ralib, to‘rt tomonida 4 ta darvoza o‘rnatilgan. Har bir darvoza yonida kuzatish minoralari qurilgan.

O‘lkashunoslar tomonidan topilgan sopol buyumlar, g‘isht qoldiqlari, tangalar va boshqa buyumlar G‘ijduvonning miloddan avvalgi V asrlarda qad ko‘targanidan dalolat beradi. Arab geograf olimi Abdar Rahmon Tamkinning yozishicha, G‘ijduvon shahristoni baland tepalikda joylashgan bo‘lib, pishiq g‘ishtli baland devor bilan mustahkamlangan. Shaharni 5–8 metr kenglikdagi ikkita ariq ikki tomondan o‘rab olgan. Bular Qalqonro‘d va Pirmas ariqlari bo‘lib, ularning suvi atrofga hayot bag‘ishlagan.

Bu ariqlar G‘ijduvonni go‘zal, xushhavo, so‘lim bir go‘shaga aylantirgan. Ziyoratchilar kelib Abduxoliq G‘ijduvoniyning maqbarasini ziyorat qilib ketishgan.

Amir Temur, Ulug‘bek, Bobur Mirzo kabi buyuk kishilar ham bu muqaddas qadamjoni ziyorat qilib o‘z marhamatlarini ko‘rsatishgan. Mirzo Ulug‘bek madrasa qurdirib, “Ilm olmoq har bir musulmon erkak va ayollari uchun farzdir” degan hikmatni madrasa peshtoqiga yozdirib qoldirgan.

Ko‘hna G‘ijduvon zamini bosqinchilik urushlarni, talon-tarojlarning guvohi bo‘lgan. VIII asrda arab bosqiniga qarshi kurashgan lashkarboshi G‘irdak Muqanna tarafdorlaridan edi. G‘ijduvonlik lashkarboshi G‘irdakka tarixchi Narshaxiy yuksak baho beradi. Sho‘ro davlati davrida yurtimiz ozmuncha talofat ko‘rmadimi?

Rus istilochilari xalqimiz yetishtirgan paxta, g‘alla, pilla, yer osti boyliklarimiz – oltin, kumush, gaz va neft kabi ma‘danlarni arzon garovga tashib ketdilar. Buxorodan eshelon-eshelon oltin va kumush Moskvaga borgani hech kimga sir emas. O‘sha davrda eng og‘ir ahvolda qolgan rus xalqi Buxoro-G‘ijduvon oltinlari bilan o‘z qaddini tiklab olgan edi. 1930 – 1938- yillarda xalqimiz boshiga og‘ir kunlar bo‘roni keldi. “Xalq dushmani” deb ayiblanib ko‘plab G‘ijduvonliklar qamoqqa olindi. Siyosiy ayb bilan 1700 kishi quloq qilinib, o‘z qishlog‘idan boshqa joylarga badarg‘a qilindi.

Ularning yer-mulklari tortib olinib, og‘ir sharoitlarda yashashga majbur qilindi. Xalq e‘tiqodi, dini milliy urf-odatlarini toptaldi. Mozorlar, masjidlar qarovsiz holga tashlab qo‘yildi. Bu yerga borgan, ziyorat qilgan odam jazoland.

Buyuk islom olamining peshqadam allomasi, hazrat A. G‘ijduvoniy masjidi mol bozoriga aylantirildi. Bu xalqimizni ma‘naviy ezish, uni tahqirlash emasmi? Bolalarimizga rus e‘tiqodi singdirilib, Rossiya tarixi o‘qitila boshlandi. O‘z ona tilidan rus tilini ustun qo‘ydilar. Davlat ishlari, hujjatlari rus tilida olib borildi. O‘z xalqini himoya qilib, bu siyosatga qarshi chiqqanlar qamoqqa olindi, izziz yo‘qotildi.

F. Xo‘jayev, Fitrat, Mulla Qahhor, Muhiddin Maxsum, Ubaydullaxo‘ja, Abdullaboyvachcha, Ibrohimbek kabi juda

ko‘plab xalqimizning vatanparvar kishilari qamoqqa olindi. Yana ularning qilgan ishlari, xalq hayoti uchun chekkan zahmatlari qoraga bo‘yalib, o‘zimizga dushman qilib ko‘rsatishdi. Qariyb 50 yil davomida ular “bosmachi”, “xalq dushmani” tamg‘asi bilan qoralanib kelindi.

Halqimizda “Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi” degan maqol bor. Yillar o‘tdi, mustaqillik tufayli o‘zligimiz, qadimgi boy tariximiz tiklandi. Ular tutgan yo‘l –adolatli kurash, ozodlik uchun kurash yo‘li, xalqimizning jasorati sifatida baholandi. Bu yo‘lda qurbon bo‘lganlar, shahid ketganlar kafansiz, janozasiz dafn etilganlar xalqimiz, avlodlarimiz xotirasida abadiy yashaydi. Prezidentimiz I. A. Karimov jon kuydirib “...bir paytlar milliy qadriyatlarimiz, tilimiz, dini-miz va ma‘naviyatimiz qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu og‘ir mashaqqatli yillarni, fojeali o‘tmishimizni barchamizga ma‘naviyatimizni, qadriyatlarimizni, o‘z tariximizni chuqurroq orgatishimiz kerak va ularni doimo ogoh bo‘lib yashashga da‘vat etishimiz kerak”, — deb qayta-qayta ta‘kidlaganlar.

II-jahon urushi yillarida ham xalqimiz o‘z boshidan ogir va musibatli kunlarni o‘tkazgan. Urush Rossiya tuprog‘ida bo‘lsada, uning og‘ir talofatlari, jabr-sitamlari, kechayu kunduz bo‘ladigan og‘ir mehnatlari bizning xalqimiz gardaniga tushdi. Urush yillari birgina G‘ijduvondagi sanoat korxonalarining o‘zidan 7000 kishi frontga olingan, ularning o‘rniga 1200 ta xotin – qiz va o‘smirlar kecha-yu kunduz ishga jalb qilingan. Frontga oziq – ovqat, meva-cheva, kiyim-kechak va turli mahsulotlar yetkazib berish uchun G‘ijduvon xalqi ham tinmay mehnat qilgan. Paxta-yu g‘allasini, yeb turgan bir burda nonini ham baham ko‘rgan. Frontdan evakuatsiya qilingan ota-onasiz qolgan yetim bolalarga mehr-shafqat ko‘rsatib, o‘z bolasidek bag‘riga olib tarbiyalagan.

Urush yillari ocharchilik bo‘lsa-da, xalqimiz Ukraina, Belorussiya, Moldaviya Respublikalari, Leningrad, Smolensk, Odessa, Xarkov va boshqa shaharlardan ko‘chirib keltirilgan

oilalarga bag‘ri kenglik qildi. Ularga boshpana, kiyim-kechak, oziq-ovqatlar berdi. Qariyb 1307 ta oila G‘ijduvonning 101 ta jamoa xo‘jaligiga tarqatilib joylashtirildi. Deyarli har bir oiladan 17 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan erkaklar frontga ketib, dala ishlari, zavod va fabrikalarda ishlash ayollar, bolalar va qariyalar zimmasiga tushdi. Bir burda qora non uchun ertadan kechgacha tinim bilmay fidokorona mehnat qilishdi. Jangga ketganlarning ko‘pi begona yurtlarda vafot etdi, qolganlari yarador bo‘lib, o‘z vatanlariga qaytishdi. Birgina misol: 1941 yil G‘ishtidagi 1 – son maktab direktori Said Yahyoyev o‘zining 12 nafar bitiruvchi o‘quvchilari bilan urushga ketib, jang maydonida mardlarcha shahid bo‘lishdi. Ular endigina 17 yoshga kirgan azamat yigitlar edi-ku. Urush tufayli ko‘plar otasidan, o‘g‘lidan, aziz jigargo‘shalaridan judo bo‘ldi. Ochlik tufayli ko‘plab kishilar kunjara yeb ham vafot etdi. Urush ana shunday og‘ir ayanchli oqibatlariga olib keldi.

*Esingdami, do‘stim, urush yillari
Uch-to‘rt kunda bir pishardi yovg‘on.
Yarg‘ichoqdan pishib onam qo‘llari
Unning kamligidan yopolmasdi non*

*Urush baxtimizni ketdi o‘g‘irlab,
Ko‘rmadik shirmoy non, daftaru qalam.
O‘ylasam yosh olib qimtinadi lab,
Og‘ir yillar uchun qiladi alam.*

*Urush tugab bobolarim kelmadi,
Yot ellarda qolib izsiz yo‘qoldi.
Faqat ular ruhi shod yurmoq uchun
Mangu olov bo‘lib qalblarda qoldi.*

Xalqimiz qancha og‘ir kunlarni boshidan o‘tkazmasin, hamisha ishonch va umid bilan yashadi. G‘ijduvonda urushdan so‘ng fan va madaniyat, qishloq xo‘jaligi, savdo – sotiq



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1012> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1012> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1012>